

2022-yilda o'qituvchilarning ish haqini malaka
toifasiga qarab oshirish rejalashtirilgan:

Oliy toifalilar:
15 %

Birinchi toifalilar:
10 %

Ikkinchi toifalilar:
5 %

Ch

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#69 (16522)
2022-yil, 1-oktabr
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqqa boshlagan

Dolzarb mavzu
3-bet

Ijara uylar narxi
keskin oshgan

Yoshlar yetakchisi
4-5-betlar

Mahallani yosh tadbirkorlar
rivojlantiradi

Ko'zgu
6-bet

Ustozni
qadrlaymizmi?



Foto: Shuroj ASLONOV (O'ZKA)

TA'ZIM SIZGA, USTOZZLAR!

1-OKTABR – O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI

Navoiy shahridagi 8-IDUM o'qituvchisi, xalq ta'limi a'llochisi Dilorom Hakimova qariyb
30 yildan beri o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berib kelmoqda.

7-betga
qarang

TENG

Uzun tumanining chekka qishlog'ida yashayotgan 17 yoshli ilhomjon yaqin kungacha uy sharoitida yakka taribda o'qir edi. Ilhomjon Inkluyuziv ta'lif markaziga jalb qilingach tengdoshlari bilan musiqa to'garagida saboq ola boshladи. Inkluyuziv ta'lif jarayonlari uning hamma bo'lalar qatori teng ta'lif olishi, sog'lom o'g'il-qizlar o'rganishi mumkin bo'lgan saboqlarni u ham o'zlashtirishiga ko'maklashdi, yangi qirralari ochildi.

Inkluyuziv ta'lif markazlari dagi ana shunday to'garaklar nogiron bolalarning rivojlanishiga katta yordam beryapti. Ilhomjon Muxtorov hayotida ham Surxondaryo viloyoti Inkluyuziv ta'lif markazining o'mi katta bo'ldi.

Inkluyuziv ta'lif hamma bo'lalar (shu jumladan, nogironlar) ning bir xil maktab va sinfda - bir xil sharoitda ta'lif olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. Lekin shu paytgacha imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqidagi maqtanib bo'lmasdi. Negaki bu borada talaygina muammolar bor edi: alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lif muassasalarida ular uchun to'siqsiz suhit va imkoniyatlar yaratilmagan, ta'lif muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan.

Shu bois respublikamizning barcha hududlarida inkluyuziv ta'lif markazlari faoliyati yo'lg'a qo'yildi. Viloyatimizdagи Inkluyuziv ta'lif markazida esa tayanch harakatida, talaffuzida nuqsoni bor, ehtiyojmand oila farzandlari tikuvchilik, musiqa va matematika to'garaklariga jaib qilinmoqda.

Viloyatdagi Inkluyuziv ta'lif markazida nafaqat ta'limi va kasbiy ko'nkmalar, balki bolalarning iste'dodini yuzaga chiqarishlari uchun ham turli madaniy va sport musobaqlari hamda ko'rlik-tanlovlar o'tkazib kelinmoqda. Xususan, "Besh tashabbus olimpiadasi"ning 1-mavsumida 70 nafrar imkoniyati cheklangan yoshlar o'z imkoniyatlarini sinab ko'rди. G'oliblar Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Aslida jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar ham boshqaclar qatori ta'lif olishga va mav-


jud imkoniyatlardan foydalanishga haqli. Shu bois Yoshlar ishlari agentligi nogiron shaxslarga moddiy yordam berib, mehnat qilishiga zarur shart-sharoit yaratishiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Birgina Surxondaryo viloyati misolida oladigan bo'sak, bugungi kunda viloyatdagi nogiron yoshlar soni 3 ming 217 nafarni tashkil etadi. Ular dan ijtimoiy himoyaga muhtoj 556 nafar nogiron yoshga 1 milliard 453 ming so'm mablag' "Yoshlar daf'tari" jamg'armasi hisobidan to'lab berildi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasingin 2022-yil 21-iyundagi "Nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash to'grisida"gi qarori asosida nogiron yoshlarga o'qish, yashash va transport xarakatlarini qoplash uchun, shuningdek, asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya ajratishning ma'muriy reglamenti ishlab chiqilib, Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan har yili 500 nafargacha nogiron yoshlarga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratilishi belgilab qo'yildi.

Zilola MEYLIEVA,

Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasining ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassisи

IMKONIYATLAR MARKAZI



**"BESH
TASHABBUS
OLIMPIADASI" NING
1-MAVSUMIDA
70 NAFAR
IMKONIYATI
CHEKLARGAN
YOSHLAR O'Z
IMKONIYATLARINI
SINAB
KO'RDI.**

IMKONIYAT

**"USTA-SHOGIRD"
MAKTABLARI
O'QUVCHILARIGA IMTIYOZ**



O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 408-moddasiga muvofiq, "Usta-shogird" maktablari o'quvchilar uchun mehnat stajini hisoblashda imtiyozlar ko'zda tutilgan. Jumladan, mehnat staji hisoblanishi uchun "Usta-shogird" maktablari o'quvchilar ijtimoiy soliqni kamaytirilgan stavkalarda, ya'ni yiliga **bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi**.

Mazkur imtiyoz soliq stavkasi "Usta-shogird" maktablari o'quvchilar yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrda qo'llaniladi. Soliqni to'lash hisobot yilining 1-dekabrigacha amalga oshiriladi. Soliqning miqdori esa to'lov kunida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holida hisoblab chiqariladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari

Mazkur imtiyozdan foydalanish uchun "Usta-shogird" maktabi o'quvchisi 25 yoshga to'lmagan bo'lishi lozim. Shuningdek, "Usta-shogird" maktabi o'quvchisi ekanligini tasdiqlovchi hujjalarni mahalliy davlat soliq xizmati organiga taqdim etishi talab etiladi.

Imtiyozni qo'llash bo'yicha murojaatlari "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'grisida"gi qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi. Xususan, arizalar 15 kun ichida, qo'shimcha o'rganish (tekshirish, qo'shimcha hujjalarni so'rab olish talab etilganda) esa bir oygacha muddatda ko'rib chiqiladi.



IJARA UYLAR NARXI KESKIN OSHGAN



BU TALABALARGA JIDDIY MUAMMOLAR TUG'DIRMOQDA

So'nggi haftalarda Rossiya fuqarolarining qo'shni mamlakatlarga ko'chib o'tish holatlari ikki barobarga ortgan. Statistikaga ko'ra, rossiyaliklar eng ko'p Armaniston, Gruziya, Qozog'iston, O'zbekiston va Ozarbayjonga ko'chib o'tmoqda. Armaniston va Gruziyaga Rossiya fuqarolarining ko'chib kelish ko'satkichi uch barobarga oshgan.

Eskertlarning qayd etishicha, Rossiyada qisman safarbarlik elon qilinishi natijasida mamlakat fuqarolarining ko'chib ketishi yuqorida davlatlarda uy-joy ijara haqining oshishiga olib kelmoqda. Nisbatan arzon bo'lgan Toshkent shahri markazidan bir xonali kvartiraning ijrasi ham oyiga 300-700 dollarni tashkil etmoqda. Poytaxtning chekka tumanlarida ijara haqi 200 dollardan boshlanadi. Qisqa qilib aytganda, ijara uylar narxi "Toshkent telemminorasi" bo'yiga yetmoqda!

Tosh shaharga kelgalarning aksariyati ijara ga uy qidirish, falon pul to'lab ham uy egasining turli injiqqliklariga chidash, kezi kelganda uydan haydalishning ta'mini yaxshi biladi. Bir tomonda ro'zg'or, bir tomonda ijara, ba'zan tarozi pallasini mutanosib ushlab bo'lmay qoladi. Chunki bugungi kunda aholi daromadining yarmidan ham ko'progi ijara uylar uchun ketmoqda.

Bu borada norasmiy tarzda umumqabul qilingan ko'rsatkich bor - agar inson o'z daromadining 30 foizini ijara uchun sarflasa, o'zini iqtisodiy jihatdan mustaqil hisoblashi va oilasi byudjetini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Agar ijara oylik daromadning 40 foizidan oshsa, og'irlik qila boshlashi, 50 foiz va undan yuqori ko'rsatkichlarga chiqishi insonni murakkab vaziyatga tushirishi hisoblab chiqilgan. Masalan, rivojlangan davlat - Germaniyada haqiqatdan ham shu darajaga erishilgan, aholi o'z daromadining 25-35 foizini ijara uchun sarflaydi. Ammo bunday iqtisodiy yutuqqa hamma ham, hatto yuksak rivojlangan davlatlar ham erishavermaydi, jumladan, Toshkent shahrida ham bunday emas.

Aytaylik, yosh oila boshlig'i o'qituvchi, ayoli hamshira, bir nafar yosh bolasi bor. Er taxminan 2,5 million so'm, ayoli esa 1,5 million so'm maosh oladi. Agar ular eng kamxarj sharoitda yasha-

sa ham, oila boshlig'i daromadning taxminan 80 foizi ijara ga sarflanishi zarurligi ayon bo'ladi. Qolgan qismi qora qozonni tebratishga birda yetib, birda yetmaydi. Shunday yosh oila vakilariidan biri shunday deydi:

"Yosh olamiz, yaxshi hayat ilinjida qishloqdan shaharga kelgandik. Mana bir yarim yildirki, er-xotin topganimizni ijara, kommunal to'lovlar, kundalik chiqimlardan ortira olganimiz yo'q. Kommunal tolovlar ham aksariyat ijara chilaming o'boynida, mayda ko'ringani bilan shular ham ko'p pulga aylanib ketadi. Narx-navoning kunda-kunora oshishini ko'rib, yuragim orqaga tortadi. Shu paytgacha bir xonali uya 200 dollarga ijara da turardik, yaqinda yana 50 dollar ga oshdi. Ba'zida xorija ishlaganı ketsammikan, o'shanda, balki, biroz ortirib, uy-mashina olaman deb o'yab qolaman. Lekin bolalarim

taqdidi, ularning yonida bo'lmaslik meni qattiq tashvishga soladi. Toshkent shaharda ijara yashagan odam bolalarining kelajagi uchun ularga alohida pul ajratishi ham qiyin masala bo'lib qolayti. Kreditga uy olishni rejalashtirgandik, biroz boshlang'ich to'lov muammo bo'lyapti. Biz kabi ijarama-ijara sarson bo'lgan qanchalab yosh oillarini bilaman. Shu kunlarda ijara narxini oshirib yoki eski ijara chilamini chiqarib, o'miga xorijiklarni qo'yayotgan uy egalarini ham ko'rdim. Narxlarini kundan kunga oshirishadi, lekin qancha daromad qilishing, qanday yashashing bilan hech kimning ishi yo'q. Xillas, topganimiz yashab qolishdan boshqasi gayetmayapti."

Ayni mavzuda so'rov nomda o'tkazganimizda nafaqat yosh oillar muammosi, balki 15-20 yıldan beri ijara yashayotgan taqqidlariga duch keldik. Asli buxorolik Muyassar opa hozir 53 yoshda, oila qurgach Toshkentga ko'chib kelgan.

- Turmush o'rtog'im bankda hisobchi bo'lib ishlardi, men esa uyda tikuvchilik qillardim, - deydi Muyassar opa. - Uch nafar farzandimiz bor. Topganimiz ro'zg'ordan ortmaganach, xo'jayinim davlat ishini tashlab, bozorda savdogarlikka tushib ketdi. Mana, yigirma yillardiki, ijarama-ijara sarson ya-shaymiz. Orada kreditga uy olamiz deb boshlang'ich to'lovga mablag'

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbirini

yig'ayotganimizda, ikki marta yuragimni operatsiya qildirdim. So'ng uchala farzandimizni o'qitdik, qizimiz uzatdim, katta o'g'lim uylangach u ham alohida ijara uya chiqib ketdi. Kichik o'g'lim esa talaba, hozir uni o'qityapmiz. Yoshligimda jahon adabiyotlarda butun umr ijara yashab, ijara uyida jon berayotganlar haqida o'qisam, ajablanar edim, nahotki inson boshpanasiz o'tishi mumkin bo'lsa deb. Hozir esa hayron qolmay qo'yganman.



Ijarama-ijara yurib, talabalarga joy yo'q degan yozuvlardan zada bo'lgan aksariyat yoshlar bugun amallab topgan boshpanasining haqini to'lash uchun darslarga bormay bo'lsa ham, ishlashga majbur.

- Ikkinchisi kurs talabasiman, kontraktida o'qymen, - deydi o'zini Jasur deb tanishitirgan tababa. - Universitetimiz yotoqxonasidan joy ololmagach, kvarтирада yashashga majbur bo'ldim. Ishonsangiz, ikki yil ichida 11 marta ko'chganimiz, chuv tushirib ketganlarning esa son-sanogi yo'q. Qishloqdagagi oddiy oilaning farzandiman, ota-onam kontraktimni amallab to'lashadi. Yigit kishi bo'la turib, yeb-ichishimga ham uydan pul olishim uyat. Kundan kunga oshayotgan ijara narxlarini to'lash, kung ko'rishim uchun darsdan so'ng ofitsiantlik qilaman. Ishim kech tugaydi, charchoqlar sabab darslarga e'tibor bera olmay qolaman. Besh kishi katalakday xona uchun oyiga 700 mingdan to'laymiz, lekin deyarli hammamiz uya faqat uslash uchun kelamiz...

Shu o'rinda yangi oila qurgan talaba yigitning so'zlarini ham keltirib o'tishni xohladi:

"Ba'zan o'qib qolaman: "18-20 yildan buyon uy ololmayman". Bulami ko'rib, tabiiyi, kishini o'y, g'am bosadi. Toshkentda qilmochchi bo'lgan karyeleralaringi yana bir tahsil qilib chiqasan. Tahillilaring ham qo'rqinchili: yaqin 10 yilda hatto kreditga ham uy ololmasligingini o'yab siqilasani, o'zing yonbosh, xotining darddosh, orada bolalarining tug'ilib, yig'isi sitamdos bo'laveradi..."



MAHALLANI YOSH TADBIRKORLAR RIVOJLANTIRADI

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbirini

Chiqindilarni qayta ishlab biror mahsulot yaratish – san'at. Bu san'at orqali yaxshigina daromad topish esa uddaburonlikdir. Bugun siz-u biz bilan o'z tajribasi haqida o'rtoqlashish istagidagi qahramonimiz ham mahallasida ana shunday keraksiz holga kelib qolgan chiqindilarni qayta ishlab, san'at asari yaratayotgan uddaburonlarni qo'llab-quvvatlashni, ularni tadbirdikorda aylantirishni niyat qilgan.



Omonbek EGAMBERDIYEV,
Zangiota tumanidagi "Turkiston" mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Keraksiz narsalardan biror mahsulot yaratish orqali mo'maygina daromad topish mumkin. Sababi bunday buyumlar uchun katta xarajat sarf etilmaydi. Bu esa sof daromadning ortishiga olib keladi. Ish boshlaganimda xatlov sabab Nazar Intimaqov ismli yoshning uyiga kirib bordim. Uning yaroqsiz holga kelgan avtomobil balloniga ishlov berib o'tirganiga ko'zim tushdi. So'rasam, talab bo'lib qolsa, mahallamizdagi muktab yoki bog'chalarga landscape-buyumlarini yasab turishini aytidi. Bu sohaga internet tarmog'i orqali qiziqib qolildi. Dadasi rassom bolgani bois yasaladiga narsalar rasmini chizib, ranglari qanday bo'lismeni tavsiya qilar ekan. Garchi buyurtmalar soni ko'p bo'lmasa-da, oyiga 2-3 million daromad olayotganini aytidi. Bu sohaga men ham qiziqib qoldim va unga bu ishini kengaytirishni tavsiya qildim.

Nazar INTIMAQOV,
"Turkiston" mahallasi fuqarosi:

— Mahallamizdagi yoshlar yetakchisi Omon Egamberdiyev ishimni kengaytirishni taklif qilganida burchalik bo'ladi deb o'y lamagandim. Ular "Birinchi o'rinda sizning ishlariningizni reklama qilish zarur", — dedi. Buning uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali mahsulotim haqida ma'lumot tarqatishimiz kerakligini tushuntirdi. Qolaversa, mahsulotlarining turini ko'payting, zamona viy dasturlardan foydalanib, maketlarni yasang, dedi. Men esa bularning barchasiga zamona viy kompyuter jamlanmasi kerakligini aytdim. Shu kuni meni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga oldi. Oradan ikki-uch kun o'tib menga



eng zamona viy kompyuter jamlanmasi taqdirmi etildi. Men undan foydalabinib, yasamoqchi bo'lgan narsalarimning maketini chizdim. Qarasam, juda chiroyli narsalar chiqyapti. Ularni tayyor holga keltirib, mahallamiz yetakchisi bilan birga turli ijtimoiy tarmoq kanallariga e'lon berdik. Buyurtmalar soni sezilarli darajada orta boshladi. Hozirga qadar 130 ta muktab va bog'chadan buyurtmalar olib, mahsulotlarni yetkazib berdik. O'tgan 8 oy davomida 240 million daromad topdim. Shundan 80 million so'mi sof foyda bo'ldi. Qolgan summani yonimdag'i yordamchilarim, xomashyo va zarur stanoklarga sarf qildim. Mahallamizdag'i 4 nafr yoshga ish o'rni ham yaratib berdim. Endi mahallamizdan biror bo'sh turgan joy bolsa, shu yerga o'tib, ishimni yanada kengaytirishni yiyatim bor. Bu haqda mahalla yetakchisi va hokim yordamchisiga aytganimda ular bu taklifimga rozi bo'lib, yer masalasi-da yaqin kunlarda yordam berishini aytishdi.

Mahalladagi yana bir yosh yetakchining tavsiyasi bilan chiqindilarni qayta ishlab, yuqori daromad ola boshladi. Hozir uning mahsulotlariga qo'shni Qozog'istondan ham qiziqish bildirib, buyurtma berayotganlar bor.


Baxtiqul MIRG'YOSHEVA,
"Turkiston" mahallasi fuqarosi:

— Bir farzandim bilan turmushimidan ajrab, otamning uyiga kelganman. Ukam nogiron. Hozir uya mendan bo'lak boquvchi yo'q. Mahallamizdag'i yoshlar yetakchisi xatlov payti kelib, oilaviy ahvolimizni ko'rdi va mendan qaysi sohada ishlashni istaysiz, deb so'radi. Men tikuvchilikdan xabarim borilagini aytdim. U meni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, ikki kunda tikuva mashinasi olib kelib berdi. Men avvaliga qarindosh-urug'larga, qo'ni-qo'shnilariga ko'ylik, u-bu narsalar tikib berdim. Tikuvchilikka anchra qo'llim kelishib, kuniga 100-120 ming so'm daromad topadigan bo'ldim. Omon Egamberdiyev bir kuni uymiga kelib, qancha

daromad olayotganimni so'radi. Olayotgan daromadimni xursand bo'lib aytidim.

U kishi bu kam, siz yanayam ko'proq pul topishingiz kerak, dedi. Ular menga milliy urf-odatlari-mizdan bo'lgan quroqchilik bilan shug'ullanib ko'rishimi tavsiya qildi. Buning uchun juda ko'p qiyqim matolar kerak bo'lishini aytidim. Bu borada o'zi yordam berdi. Yon-atrofimizdag'i katta-katta tikuv sexlariga borib, kerak-siz matolarni menga berishiga ko'ndirib keldi. Men mahallamizda quroq ko'rpa-yostiqlar tikadigan ayoldan bu hunarni o'rgana boshladim. 1 haftada mustaqil tikishga kirishdim. Mahallamiz yetakchisi esa men tikkan narsalarni reklama qilib berdi. Mahsulotlarimiz dovrug'i qo'shni Qozog'iston Respublikasiga yerbordi. Buyurtmalar soni juda ko'payib, bir o'zim tikishga ulgurmay qoldim. Shu bois mahallamizdan uchta yoshni yonimga





olib, ish berdim. Hozir shu uch qiz ham yaxshigina maosh olmoqda. Mening kunlik sof foymd 300-400 ming so'mga yetdi. Bu hali boshlanishi. Men kelajakda "biznes ledy" bo'lish niyatidaman. Albatta, mahallamiz yoshlar yetakchisining ko'magi bilan maqsadimga yetaman. Aslida u kishining ham niyati shu - mahallamizda katta tadbirkorlarni kashf etish.

Mahalla yoshlar yetakchisi parrandachilik bilan shug'ullanish niyatini bildirgan **Bekzod Abdufattohovga** ham "Yoshlar daftari" hisobidan 33 million so'mlik imtiyozi kredit ajratib berdi. Bu pulga Bekzod 6 mingta o'rda jo'sasini sotib oldi. Ularni parvarishlash uchun esa mahalladagi bo'sh turgan bino ajratib berildi. Hozir jo'jalari ancha katta bo'lib, Bekzod daromad ham qilishga kirishdi. Kredit olgandan buyon qisqa vaqt ichida u kreditning yarmini yopib ulgurdi. Uning fikricha, bu soha ancha daromadli ekan.

Yoshlar yetakchisi **Omonbek Egamberdiyev** esa endi mahallada parrandachilik qilish niyatidagi yoshlarga yordam berib, yosh tadbirkorlar safini yanada kengaytirish niyatida.



BANKLAR DIQQATIGA! KREDIT FOIZLARI QACHON KAMAYADI?

So'nggi yillarda bank tizimi birmuncha tartibga solindi. Aholi uchun qator yengilliklar yaratildi. Ammo baribir kreditlar ustamasi juda balandligicha qolmoqda...

Bizda o'ta yuqori foizda kredit olgan tadbirkorning biznesi inqiroza uchrash ehtimoli baland. Odidiy aholiga kredit berish esa cho'kayotgan odamning qoliga og'ir xarsangtosh tutqazib qo'yish bilan barobar. Ayniqsa, banklarimiz ajratayotgan ipoteka kreditlari odamlarni emas, banklarni kambag'allikdan chiqiyaptimi, deb o'ylab qolasan kishi.

Dubayda yashovchi tanishim bilan gaplashdim.

Uning aytishicha, bu davlatda banklarning o'zi sizga "kredit oling" deb qo'ng'iroq qilishadi. Masalan, Dubayda "Noor Bank" islonmiy banki bor ekan. Tanishim undan kredit olmoqchi bo'libdi. Agar 21 000 dirham (5 ming 450 AQSh dollarri) pul olib, uni 6 oy ichida qaytarsangiz, sizdan 600 dirham (155 dollar) foiz olisharkan. Bank atigi 3 foiz foymda ko'ryapti, xolos. Sharhnomaga imzo qo'yishingiz bilan so'ragan mablag'ingiz bir necha saat ichida hisob raqamingizga tashlab beriladi...


Birlashgan Arab Amirliklarida kredit kartaga pul olib, 1 yoki 2 oyda qaytarsangiz, sizdan umuman foiz olinmaydi. Ko'pgina Yevropa davlatlarida ham kredit kartalar mavjud bo'lib, Arab davlatlaridagi tizim yo'lga qo'yilgan. Agar olgan kreditningizni belgilangan muddatda to'lamasangizgina, sizdan uzog'i 3-5 foiz olinadi. Bu xuddi vaqtinchalik qarz olib, uni ma'lum muddatda to'lab qo'yishga o'xshash jarayondir.

Finiyandiya bilan ham qiziqib ko'rdim. U yerda kredit olmoqchi bo'sangiz, atigi 15 daqiqada so'ragan pulingizni hisob-raqamizgiga o'tkazib berisharkan. Ajab, nega bizda kredit foizlari bunchalar yuqori? Uning miqdori 20-25, hatto 30-35 foizgacha chiqib ketgan?

Unisini-ku qo'ya turing. Kredit olaman, deb nechta eshikka sarg'ayasiz, qancha qoq'ozbozlik bo'ladi, kamiga, kaflining bo'lmasa, har qanday bank ham sizga rad javobini beradi. Nahotki banklar fuqarolarga shunchalik ishonmaydi? To'g'ri, yuqrorda rivojlangan mamlakatlar nomi tilga olingan. Lekin u yerda ham siz-u bizga o'xshagan qorako'zlar yashaydi. Tili, millati, dini, nasl-nasabi boshqa bo'lishi mumkin, ammoyinchani navbatda ular ham biz kabi Hazrati insondir.

Universitetda o'qib, 4 yil ichida na kontraktimga, na kundalik xarajatlarimga uydan pul so'radim. O'zi o'g'il bola ulg'ayganidan so'ng bunga andisha qilib qolarkan. Shuning uchun doim qiyaldimmi, yo'lini topishga harakat qillardim. Ja bo'masa, qarz ko'tarardim...

Yaqinda tobim qochdi. Davolanish uchun 10 million so'm kerak bo'ldi. Uyga indamasdan banklarga kredit bo'yicha murojaat qildim. So'nggi 7-8 oydan beri xususiy sektorda faoliyat yuritayotganim sababli ular so'ragan hujjatlarni taqqid qila olmadim. Agar menda bu hujjatlarni bo'lganida ham ular mikroqarzni 2 yil muddatga, yiliga 26 foizdan berishardi.



Bu esa judayam qimmat! Nazarimda, aynan ijtimoiy sohalar uchun kredit berish tizimini ham ko'rib chiqish kerak, bu borada kamchiliklarimiz bisyor.

Majbur bo'lib uydan yordam so'radim. Ota-onam qarz-havola qilib bo'sa-da, pul topib jo'nashidi. Ular rasmiy ish joyimdan oxirgi 6 oy ichidagi daromadlarim hisobotini ham so'rashmadi. Mayhalladan "spravka" olib, uning haqiqiyligi haqidagi "spravka"ni notariusdan tasdiqlatish ham kerak bo'ladi. Aytgancha, hech qanday foiz ham yo'q. Pasportimning nusxasi, tirkilim haqidagi ma'lumotnomasi, Xuda ko'satmasin, o'lib-netib qolsam, bironqa kafilning tilxatini ham ota-onamga taqdim etmadim...

Kasalxonada ahvoli juda og'ir bermorlar bor. Farzandining o'lim bilan kurashayotganini ko'rib turib, boshini changallab, qo'lidan hech narsa kelmasdan, ojizligidan kuyunib turgan ottonalar son mingta. Ularga davlatdan boshqa kim yordam beradi? Banklar kredit ajratmaydi, odamlar qarz bermaydi. Farzandi esa aynan pul topilmaganiga sabab dunyodan o'tib ketaveradi. Bu shunchaki daxshat!

Ijtimoiy tarmoqlarda ham kuniga kamida 10-15 ta sahifada betob bolasi davlatish uchun saxovatpesha insonlaridan ko'mak so'ragan ota-onalarning xabarlarini e'lon qilinadi. Barchasi oddiy odamlar. Qani ular uchun banklarimizda maxsus tizim yaratilsa, yordamga muhtoj odamlar to'g'ridan-to'g'ri bankka murojaat qilsa, bemorlar o'z vaqtida qilingan muolajalar sabab sog'ayib ketsa! Bu xayriy ish mas'ul xodimlarning u dunyo-yu bu dunyosi uchun faqat va faqat yaxshi bo'ladi. Bitmas-tugammas savob-ku bu!

Davlat shifoxonalarida, ayniqsa, chekka tumanlardagi poliklinikalarda ahvol juda achinarli. Odam u yerga tuzalish uchun emas, kasal bo'lish uchun boradi go'yo. Xususiy klinikalarda esa narx qimmat... Qaniydi, banklarimiz bu masalaga jiddiy yondashib, biron yechim bersa. Qulay, six ham, kabob ham kuymaydigan yo'llarni o'ylab topishsa. Toki kredit insonlarni kambag'allikdan qutqaradigan muhim omil bo'sin. Oddiy odamlarni qashshoqlik botqog'iga botiradigan emas...

Abdulaziz AHMEDOV

USTOZNI QADR LAYMIZMI?



1-OKTABR

- O'qituvchi va murabbiylar kuni etib. belgilanganiga 26 yil to'ldi. Bu sanani har yili keng nishonlaymiz. Bayram arafasida faol o'qituvchilarini mukofotlash, turli tadbirlari uyuşdırish, ular uchun dasturxon yozish an'anaga aylangan.

Ammo o'qituvchi-pedagoglarining izzat-hurmati joyiga qo'yilmoqdami?

„Afsuski, bu savolga baralla „ha“ deb bo'lmaydi.

Go'yo bu sana ustozlarining izzat qopoti oldiriladigan kunga o'xshaydi. O'qituvchining obro'si, uning "ming yillardan beri e'zozlanishi", hatto "ustoz otangdan ulug"ligi haqidagi balandparvoz jumlalar faqat tillarda yashaydi.

Amalda esa ustoz-muallim o'qivchilar birda so'ziga qulqoslib, birda ustidan kuladigan, orqa partadan piching gaplar otib o'tiradigan, istalgan paytda dar-sini bo'lish, so'zini kesish mumkin

AKSIOMA. ETIBOR BERGANMISIZ, YAXSHI O'QIYDIGAN BOLALAR USTOZLARGA GAP QAYTARMAYDI VA HURMAT QILADI, USTOZINI HURMAT QILMAYDIGINLARNINGESA OZLASHTIRISHI PAST BO'LADI.

bo'lgan, bolasiga bergan tanbehi uchun ota-onalar tez-tez do'pposlab, haqoratlab turadigan hokisor bir insondir.

Oyligi ro'zg'or tebratishga yet-maganidan bolalarning qo'lliga qara o'tirgan, darslar kamliigidan maktabda soat talashib yoqalashgan, o'qishni ham o'lda-jo'lda bitirib, haminqadar bilim bilan maktabga kelgan, u o'qit-gan o'quvchilar repetitorsiz OTMaga kirolmaydigan jamiyatda o'qituchining obro'si bo'lishi mumkinmi o'zi?

Mutaraqqiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, ustoz-murabbiylar mehnatini qadrlamay turib, inson kapitali va mamlakatni rivojlantririb bo'lmaydi.

Keling, aziz tengdoshlar, o'g'il-qizlar, ustozni qadrlashni, e'zozlashni o'rganaylik! Busiz yuksak taraqqiyot yo'qligini his etaylik!

Shahribonu RAHMATOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbirin

Besh tashabbus olimpiadasi

"PRANKERLAR" SHOHSUPADA!



Azaldan o'zbeklar kulgiga, ha-zil-mutoyibaga moyil xalq. Asliy qadriyatlarga sodiq qolgan holda "Besh tashabbus olimpiadasi" ga ham Quvnoqlar va zukkolar" bahsi kiritilgan.

Respublikamizdagagi deyarli barcha yoshlarni qamrab olishga muvaffaq bo'lgan bellashuvlar Bektemir tumanidagi "Husayn Boy-qaro" mahallasida ham bo'lib o'tdi. Ishtirokchi jamoalarning barchasi bellashuvlarga kuchli tayyorgarlik ko'rganiga guvoh bo'did.

Jamoalar asosan jamiyatimizni qiynatotgan, yoshlar orasidagi mavjud ijtimoiy muammolarini yumor bilan ko'satib berishga harakat qildi. Sahnaga chiqqan yoshlar professional darajadagi hazillari bilan barchani lol goldirdi.

Tomoshabintar "Prankerlar", "Positiv", "-18", "Milliarderlar", "Zabardast", "Millionerlar", "Lochinlar" jamaolari o'tasidagi qiziqarli yumorlarga maza qilib kulishid. Yukunda "Prankerlar" jamoasi mutlaq g'oliblikni qo'lg'a kiritdi. "Positiv" va "-18" jamoalar mos ravishda ikkinchi va uchinchi o'rinni band qildi. G'olib jamoa musobaqanining sektor bosqichiga yo'llanmani qo'lg'a kiritdi.

Anvar KURASHOV,

Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasining axborot va media xizmati mutaxassisini

Besh tashabbus olimpiadasi

MILLIY RAQS

G'OLIBLARI ANIQLANDI



"Besh tashabbus olimpiadasi" ikkinchi mavsumidan o'r'in olgan "Milliy raqs" musobaqalarida mahalla yoshlari faol ishtirok etmoqda.

Xususan, **G'allaorol tumanidagi "Baxt" mahallasi** yoshlari milliy raqs borasida o'z mahoratini namoyon etishdi. Asosan, "Tanovar" va "Xoramchaga" xirom aylagan yoshlar har bir raqs uchun alohida tayyorgarlik ko'rishtgani sezilib turdi. Ishtirokchilar orasida yigitlarning ham borligini alohida e'tirof etish joizdir. Yukunda "Milliy raqs" yo'naliishi bo'yicha Marjona Bahriiddinova, Marjona Abdouhadova, Visola Haqberdiyeva, Marvarid Jo'rayeva g'oliblikni qo'lg'a kiritdi.

- Raqs sevimli mashg'ulotim, - deydi "Milliy raqs" yo'naliishi g'olib Marjona Bahriiddinova. - Maktabda o'tkaziladigan tadbirlerda raqsga tushardim. Mahallamizdagi yoshlar yetakchisi Bobur Najmuddinov meni "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etishga taklif qildi. Bu yerdag'i barcha ishtirokchilar musobaqaga kuchli tayyorgarlik ko'rgan. Qatnashuvchilar orasida raqsdan sa-boq oladiganlar ham bor edi. Lekin men bugun barchasidan yaxshi o'ynadim.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbirin



FAXR VA MAS'ULIYAT

Aziza

PIRMANOVA,
Navoiy shahridagi 17-maktabning boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi



Har kuni erta tongda sinf xonasiga kirib, 30 nafar qora ko'zlarimning bir ovozdan berigan salomiga alik olar ekanman, har birining kelajagi bugun men beradigan bilim va tarbiyaga bog'liq ekanini o'ylab quvonaman, qaysidir ma'noda cho'chiyman ham.

Biroq kasbimning hamma mas'uliyati shundangina iberat emas. Millatning ulug' yozuvchisi O'tkir Hoshimovning bu so'zlarida men anglagan, ammo jamiyatimizdagi "ayrimlar" ha-nuz anglay olmayotgan hayotiy haqiqat yashiringan:

"Dehqon yerga nobop urug' sepsa, achchiq hosilini bir o'zi o'rib oladi. O'qituvchi bolaning qalbiga nobop urug' sepsa, achchiq hosini butun jamiyat o'rib oladi".

To'g'ri, muallim moddiy boylik yaratmaydi, u butun bir kela-jakning buniyodkori bo'la oladi! Partada qo'llarini qovushtirib, muallimning har bir so'zini diqqat

bilan tinglab o'tirgan beg'ubor go'dak ertaga butun dunyonni o'zgartirishga qodir, bunga uni muallimi ishortira olishi kerak. Jarayon esa osonlik bilan kechmasligini, afsuski, hamma ham tushunavermaydi...

Kasb bayrami arafasida ko'nglimdan juda ko'p o'ylar o'tmoqda, maktabni bitirib, o'qituvchi bo'lamani degan egzu niyat bilan shahar sari yo'l o'ganimga, ilk bor o'quvchilarim bilan yuzma-yuz qolishdek hajayonni his etganimga ancha yil bo'ldi. Shu davr ichida ko'plab quvonchli kunlar bo'ldi, eslagim kelmaydigan voqealar ham yo'q emas... Eng muhim, bu sharaffi kasbni tanlaganimga afsuslanmayman!

Hamkasblarimga, butun milatga ilm berishdek mashaqqatli yo'lni tanlagan yelkadoshlarimga bayram qutlug' bo'sin deb, hurmat bilan olis maktabning oddiy o'qituvchisi!

BUYUKLAR O'QITUVCHILAR HAQIDA



Talim - bu shunday jarayonki, uning boshida bola gapi-rishga, oxirida esa jim bo'lishga o'rgatiladi.

Leonard Lui
Levinson

Maktab o'qituvchilari bosh vazirlar orzu qila oladigan kuchga ega.

Uinston Cherhill

Maktabdagi o'quvchi uchun eng muhim, eng ibratlari mavzu bu o'qituvchining o'zidir.

Adolf Disterveg



O'qituvchini manadir o'rnatuvchi emas, o'quvchiga allaqa-chon bilgan narsalarini ochib berishga yordam beradigan odamdir.

Paulo Koelo

Insonlar shifokorlarva o'qituvchilardan mojiza t'alab qildilar va agar mojiza sodir bolsa, hech kim ajablanmaydi.

Mariya fon Ebner-Eschenbach



Agar o'qituvchida faqat ishiga muhabbat bolsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladı. Agar u shogirdiga otasi, onasidek muhabbat qo'yolsa, u hamma kitoblarni o'qib chiqqan, lekin na mehnatiga, na shogirdiga mehr qo'yмаган o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladı. Agar o'qituvchi mehnatga va o'quvchilarga bolgan muhabbatni uyg'unlashtirsra, u mukammal o'qituvchi bo'la oladi.

Lev Tolstoy

Ziyoda RAHIMBOYEVА toyordidi



USTOZ

Mahorat bobida hayotda tengsiz, Ustozidan o'zgan shogirdsiz, ustoz. Hurmat qatorida barchangiz tengsiz, Hech o'zin o'yamas "bedar" siz, ustoz.

Do'stsiz, tanqidchisiz, tirk kitobsiz. Ma'rifatning isi ufur sizdan. Tunga tongni bergen saxiy oftobsiz, Yulduzdek porlaylik biz ortingizdan.

Ta'rifda tillardan tushmas tashakkur, Tuyg'ular to'poni tuzdilar tartib. Ta'lim ta'miridan titroq tafakkur, Ta'zimlanar sizga tasanno aytib.

Mehribon, jonajon, aziz ustozlar, Eslamaydi demang, duolardasiz. Siz-la faxrlanib yurganimizdek, Loyiq bo'laylik deb harakatdamiz.

Odina TO'XTASINOVA,
O'ZDJTU -I kurus talabasi



YASHASHNI O'RGANDIM SIZDAN

Ham mehnat, ham zahmat, ham sharaf, ham shon. Nomingiz ulug'lab yursam shu izdan. Tun-u kun ma'rifat sizga qadrond, Ustozim, yashashni o'rgandim sizdan.

Bilim bulog'iga bag'ishlab o'zni, Dabdaba, hashamdan o'girib yuzni, Yodimda saqlayman siz aytgan so'zni, Ustozim, yashashni o'rgandim sizdan.

Ham ustoz, ham ona barchaga birday, Gohida fe'lingiz biroz og'irday, Lekin ko'nglingiz oq oydag'i nurday, Ustozim, yashashni o'rgandim sizdan.

Ustozni o'lqishlar qutlaydi qo'llar, Siz bergan o'gitlar bizlarni qo'llar, Bizga ham yor bo'sin siz bosgan yo'llar

Jasmina ALLAMURATOVA,
Yakkasaroy tumaniidagi 172-maktabning 10-sinf o'quvchisi

“BIZNING YOSH IJODKORLAR”

Yillar inson mahoratini oshiradi. Ijodkorimiz qariyb 10 yildan buyon kashtachilik san'ati bilan shug'ullanadi. Har gal Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlarga borganida yanidan-yangi g'oyalar bilan qaytadi.


Loyha muallifi Shahribonu RAHMATOVA.

Zarina Husenova Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti amaliy san'at va dizayn fakulteti 3-bosqich talabasi. U onasi sabab kashtachilikka qiziqib, ijodiy ishlarini yarata boshlagan. Kashtachilikning sir-asrorini oilasida onasidan qunt bilan o'rangan.

Sotilab bir joyda o'tirishni, kashtadagi kichik detalni tikish uchun ignanining intimsiz u tomondan bu tomonga borib kelishini tasavvur qiling-al! Zarina yaratgan kashtalarga boqib, uning barmoqlariga qoyil qolazis. San'atdagi yo'nalishlar orasidan o'zbek milliy san'ati turi - kashtachilikni tanlagani esa olqishga loyiq.

U mana shunday mehnatlari bilan bir qancha xalqaro tanlovlarda faxrlı o'rinnlari qo'lg'a kiritgan. Xususan, Chekiyaning Praga shahrida o'tkazilan "Yevropa yulduzları" nomli I-xalqaro musiqa va san'at tanlovida "Mustahkam oila" nomli kashtachilik ishi bilan ishtirot etib, I-o'rinni qo'lg'a kiritgan. Bundan tashqari, "San'at mozai-kasi" xalqaro tanlov-festivalida amaliy san'at - yog'och oymakorligi, keramika, zargarlik, zarodzlik, kashtachilik, to quvchilik, xalq o'yinchoqlari nominatsiyasida "Zebigardon" loyihasi bilan I-o'rning loyiq ko'rildi.

Zarina "Mustahkam oila" nomli ijodiy ishini qadimiy Xiva shahriga uyushtirgan sayohatidan ilhomlanilar yaratgan. Bilamizki, azaldan kashtachilik tarixida anor oila ramzi bo'lub kelgan. U esa anorlarni daraxtda jamlashni o'ylab, o'z ishini boshlagan.



- Ushbu ijodiy ishmda anorlarning turliligi bu jamiyatimizda har xil oilalarning mavjudligi ramzidir. Ularning zich joylashuviga aynan biz, o'zbeklardagi o'zgacha mehr-oqibat, e'tibor, mehmondo'stilik, bag'rikenglik belgisidir. Hoshiyalar o'tmish, hozirgi kun va kelajak ramzi, ya'ni davomiylik belgisidir, - deydi qahramonimiz.



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Musahihilar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omraviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqamli qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili 100086, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-18, (71) 238-79-95.

"Sharg" nashriyot-matbaa akseyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chap etildi. Hajmi - 2 bosma tabog Korxonasi manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1055, Adodi - 10526. Bosishga topshirish vaqt - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



1 2 3 4 5 6